

**TA'LIMDA BOSHQARUV FAOLIYATI VA MENEJMENTNING  
IJTIMOIY OMILLARI**

**M.Astanakulova**

*Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*

**Jabbarova Shahina**

*Termiz davlat pedagogika instituti talabasi*

**Annatotsiya:** Mazkur maqolada ta'lif tizimida boshqaruv faoliyati, menejmentning tutgan o'rni, maqsad va vazifalari, tamoyillari, menejmentning ijtimoiy omillari haqida to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** rahbar, MTT, boshqaruv, menejment, sifat, boshqaruv madaniyati, innovatsion yondashuv, funksiya, integrativ sifat.

Ta'lif tashkiloti rahbarlarining boshqaruv faoliyatida samaradorlikni rivojlantirish uchun bajarilishi zarur bo'lgan shartlar:

- ta'lif muassasalarini boshqarish jarayoniga, innovatsion tuzilishga ega bo'lgan murakkab pedagogik tizim sifatida yondashish;

- rahbarning boshqaruv madaniyati, shaxslararo munosabatlari hamda tarbiyaviy munosabatlarni ilmiy asoslangan tamoyillar asosida shakllantirish;

- ta'lif tashkilotining innovatsion faoliyati jarayonida rahbarning kasbiy mahorati va o'zi haqidagi fikrlariga ilmiy yondashish; rahbarlar tomonidan boshqaruv faoliyatining tahdiliy yo'nalishi, pedagogik tizimni konseptual va dasturiy boshqarishni o'zlashtirilishini amalga oshirish;

- ta'lif tashkilotini boshqarish jarayonida innovatsion yondashuvlarning natijalari bo'yicha teskari aloqani yo'lda qo'yish.

Bugungi kunda tashkilot rahbarlari boshqaruv funksiyalarining integrativ sifatlarini tavsiflovchi xususiyatlar:

tashkilot boshqaruvini ichki va tashki o'zgarishlarga moslashtirish, rahbarlik uslublaridan korporativ foydalanish, ta'lif menejmenti tamoyillarini o'zlashtirish va qo'llash, boshqaruvni ta'lif maskanining faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirishga yo'naltirish asosida belgilashni ko'rsatadi. Maktabgacha ta'lif tashkilotiga bevosita rahbarlik qilish mudir tomonidan amalga oshinladi. Maktabgacha ta'lif tashkiloti mudirini ishga qabul qilish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lifi vazirligi bilan kelishgan holda amalga oshiriladi. Davlat Maktabgacha ta'lif tashkiloti mudiri bilan mehnat shartnomasi bir yil muddatga tuziladi.

Maktabgacha ta'lif tashkiloti mudiri lavozimiga qo'yiladigan malaka talablari belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lifi vazirligi

tomonidan belgilanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti mudiri:

- Maktabgacha ta’lim tashkiloti nomidan ishonchnomasiz faoliyat ko‘rsatadi, barcha muassasa va tashkilotlarda uning manfaatlarini ifodalaydi;
- Maktabgacha ta’lim tashkiloti mol-mulkini o‘ziga berilgan vakolatlar doirasida tasarruf etadi;
- ishonchnomalar beradi;
- bank muassasalarida hisob raqamlari ochadi;
- Maktabgacha ta’lim tashkiloti xodimlarini ishga qabul qilish va joy-joyiga qo‘yishni amalga oshiradi, rag‘batlantiradi, intizomiy jazo choralarini ko‘radi va ular bilan tuzilgan mehnat shartnomalari (kontraktlari)ni to‘xtatadi;
- o‘z vakolatlari doirasida buyruqlar (farmoyishlar) chiqaradi;
- Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ishlarini takomillashtirish moddiy bazasini mustahkamlash, xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilishni ta’minalash bo‘yicha takliflarni ko‘rib chiqish uchun xalq ta’limini boshqarish yuqori organiga kiritadi;
- bolalar hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilishning samarali tashkil etilishi, o‘quv-tarbiya jarayoni, moliya-xo‘jalik faoliyati ahvoli, moddiy texnik bazaning mustahkamlanishi va moddiy boyliklarning saqlanishi uchun javob beradi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti - murakkab tarmoq bo‘lib, mudiraning undagi roli, faoliyati ko‘p qirralidir. Mudira - Maktabgacha ta’lim tashkilotining tashkilotchisi, rahbari, malakali pedagog, uning faoliyati maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni komil inson qilib tarbiyalash vazifalarini to‘laqonli hal etishga qaratilgan. U bolalar muassasalaridagi ta’lim-tarbiyaviy, pedagogik va gigiyenik talablarga muvofiq ravishda amalga oshirilishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta’minalaydi. O‘z jamoasida ishchanlik, maqsadga qaratilgan inoqlik vaziyatini yaratadi. Ularga umumiyoq rahbarlik qiladi. Mudira o‘z ishida davlatimiz va Xalq ta’limi vazirligi tomonidan qabul qilingan qaror, qonunlarga amal qiladi va o‘z ustida ijodiy ravishda ishlashni amalga oshiradi. Yuksak onglilik va siyosiy yetuklik, prinsiplilik, o‘ziga va qo‘l ostidagilarga talabchanlik - bu mudiraga qo‘yiladigan asosiy talablardir.

Jamoadagi to‘g‘ri, o‘zaro munosabatlar har bir xodimning mehnat va ishlab chiqarish intizomligiga rioya qilishni ta’minalaydi.

Rahbarlik mavqeい mudira o‘z g‘oyaviy, ma’naviy-ma’rifiy, siyosiy, huquqiy saviyasini va mintaqaviylik mahoratini doimo ongli ravishda pedagogik bilimlarni bolalarga ta’lim-tarbiya berish nazariyasi va amaliyotni puxta egallahga, hozirgi bosqichda maktabgacha ta’lim oldida turgan vazifalarni bilishga, o‘z bilimlaridan amaliy faoliyatiga foydalanishga majbur etadi. U programma, uslubik instruktiv, normativ hujjatlarni yaxshi bilishi va unga amal qilishi kerak. U pedagogik jarayonning mohiyatini chuqur bilib, yutuq va kamchiliklarini darhol bartaraf qilish choralarini ko‘rish lozim.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti mudiri Maktabgacha ta’limini boshqarish organlari tomonidan oliv ma’lumotga va 5 yildan kam bo‘lmagan pedagogik ish stajiga ega bo‘lgan shaxslardan tayinlanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotida kadrlarini tanlash, joy-joyiga qo‘yish tarbiyalash bo‘yicha ishni mehnat jamoasi, Maktabgacha ta’lim tashkiloti kengashining faollari ishtirokida ma’muriyat amalga oshiradi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarlari kadrlarning kasb mahoratini, umumiylarini, umumiylarini, umumiylarini va madaniy darajasini muntazam o’sirib borishiga g‘amho‘rlik qiladi: xodimlar malakasini hisobga olgan holda va Maktabgacha ta’lim tashkiloti manfaatlaridan kelib chiqib, ularni ratsional va o‘z vaqtida joydan-joyga ko‘chirib turilishini ta’minlaydi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida kadrlar zaxirasi shakllantirilib, ular bilan doimiy ish olib boriladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotining shaxsiy tarkibi quyidagilardan iborat: ma’muriy guruh (mudir, tarbiyachi-uslubist, xo‘jalik mudiri, katta meditsina hamshirasi), pedagogika, meditsina, xizmat ko‘rsatish tarmoqlari xodimlari.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti ma’muriyati jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda o‘z-o‘zini boshqaruv asosida bolalarni tarbiyalashda yuksak natijalarga erishishga qodir bo‘lgan turg‘un mehnat jamoasini shakllantiradi; kadrlarni o‘zini muntazam takomillashtirib borish, pedagogik va xizmat ko‘rsatish, mehnat samaradorligini oshirish ruhida tarbiyalaydi, o‘z jamoasi, tanlagan kasbi uchun faxrlanish hissini shakllantiradi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarlari kadrlarning kasb mahoratini, umumiylarini, umumiylarini, umumiylarini va madaniy darajasini muntazam o’sirib borishiga g‘amxo‘rlik qiladi; xodimlar malakasini hisobga olgan holda va Maktabgacha ta’lim tashkiloti manfaatlaridan kelib chiqib, ularni ratsional va o‘z vaqtida joydan-joyga ko‘chirib turilishini ta’minlaydi. Bu maqsadlar uchun ma’muriyat ruhiy-pedagogik bolaning huquqiy va iqtisodiy o‘quv bilan organik uyg‘unlanishini ta’minlaydi; xodimlar malakasini bevosita Maktabgacha ta’lim tashkilotida oshirish uchun shart-sharoit yaratadi, murabbiylik harakatini rivojlantiradi; mamlakatda va chet ellarda pedagogik va boshqa aralash fanlardan erishgan yutuqlar haqida axborot beradi.

Ma’muriyat jamoat tashkilotlari bilan birgalikda Maktabgacha ta’lim tashkilotlari xodimlarini attestatsiyadan o‘tkazish uchun optimal shart-sharoitlarni ta’minlaydi, ularga o‘z vaqtida zarur uslubiy yordam ko‘rsatadi.

Mudira - ma’naviy, siyosiy, huquqiy axloqiy yetuklik-saviya, ong, ma’rifatchilik, madaniyatlichkeit, xodimlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, halollik, vijdonlilik, tanqidga chidamli bo‘lish, mehnatsevarlik istiqbolni oldindan ko‘ra olish kabi xususiyatlardan mavjud bo‘lishi kerak.

Lavozim vazifalari:

- Maktabgacha ta’lim tashkiloti umumiylarini faoliyatiga rahbarlik qilish;
- pedagogik jamoa va boshqa xodimlarning bolalar bilan olib boradigan

tarbiyaviy ishlarda yuqori samaraga erishishni tashkil qilish;

- tarbiyaviy jarayonda mehnatni tashkil qilishning zamonaviy shakllaridan foydalanish;
- bolalarni boshlang‘ich sinfda o‘qitishga tayyorlash bo‘yicha davlat talablariga muvofiq tarbiyalash dasturlarining bajarilishini nazorat qilish;
- bolalar sog‘lig‘ini mustahkamlash, ularni pedagogika va gigiyena talablariga muvofiq tarbiyalash va o‘qitish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni ta’minlash;
- pedagogik kengashga rahbarlik qilish, oilada farzand tarbiyasi masalalari bo‘yicha ota-onalar bilan ishlashni tashkil etish;
- sanitariya-gigienik talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya qilinishini ta’minlash;
- budget mablag‘laridan oqilona foydalanish va muassasa mulkiga ehtiyojkorona munosabatda bo‘lish va boshqalar.

Ta’lim jarayonida o‘qituvchi bilan talabalar o‘rtasida o‘zaro jonli til, fikr olishuv, samimiy munosabat, xurmat, asosiy maqsadga erishida hamkorlik lozim. Mazmuni sayoz, amaliy tajribadan, turmushdan ajralib qolgan, umumiy so‘z va quruq nasixatgo‘ylikdan iborat bo‘lgan, rasmiyat uchun yuzaki o‘tkaziladigan dars ma’ruza va boshqa o‘quv mashg‘ulotlari talabalarni qiziqtirmaydi, ularni ilmiy, g‘oyaviy jihatdan etarli oziqlantirmaydi. Shunday ekan, o‘quv mashg‘ulotlarini Shunday tashkil etish kerakki, uning ta’sirida talabalarda shu fanga nisbatan turli qarashlar, ilmiy tafakkur va e’tiqodlar vujudga kelishi va shakllanishi darkor. Ta’lim va tarbiya jarayoni ta’sirchanligining yanada yuksak bo‘lishi, avvlo, o‘qituvchining ilmiy salohiyatiga, Yoshlar oldidagi obro‘siga, shaxsiy sifatlariga, ilmiy iste’dodiga, ta’lim sohasidagi tajriba va mahorati hamda talabalar bilan o‘rnatilgan do‘stona munosabatiga bog‘liqdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Buriboyevna A. M. Recommendations for Improving the Quality of Preschool Education through an Assessment System //Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 297-304.
2. Астанақулова М. Б. ЭКОЛОГИК ЎЙИНЛАР ОРҚАЛИ МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИНГ КОГНИТИВ ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ: <https://doi.org/10.53885/edinres>. 2022.10. 10.026 Астанақулова Манзура Бўрибоевна, Мактабгача таълим назарияси кафедраси ўқитувчиси, Термиз давлат педагогика институти //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 10. – С. 220-224.
3. Astanakulova M., Hossiyat R. MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMINI MENEJMENTI VA BOSHQARISHNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI. – 2023.

4. Manzura A. IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING THE SUBJECT OF PRESCHOOL EDUCATION MANAGEMENT //Open Access Repository. – 2023. – T. 4. – №. 3. – C. 561-567.
5. Manzura A. IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING THE SUBJECT OF PRESCHOOL EDUCATION MANAGEMENT //Open Access Repository. – 2023. – T. 4. – №. 3. – C. 561-567.
6. Uralovich T. F. Conducting classes on fine arts based on information and communication technologies //International Engineering Journal For Research & Development. – 2021. – T. 6. – C. 3-3.
7. Toshpo'latov F. ARXITEKTURA OBYEKTLARIDA CHIZMAZLIK VA AMALIY SAN'ATNING YO'Q ETILISHDAN GEOMETRİK NASHINLAR VA ULAR TURLARIDAN FOYDALANISH //Fiziko-texnologicheskogo obrazovanie. – 2022. – T. 1. – №. 1.
8. Toshpo'Latov F. U. et al. Bolalarni o 'yin texnologiyalari asosida kasb-hunarga qiziqishlarini shakllantirishda rivojlantiruvchi o 'yinlar //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 4. – C. 487-491.
9. Toshpulatov F. U., Norqochqorov R. E. O., Maxmudova X. N. Q. Xalq amaliy san'atining chizmachilik fani bilan bog'liqligi //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. 2. – C. 138-142.
10. Toshpulatov, Fakhreddin Uralovich, and R. B. Turopova. "Games that develop children's interest in the profession based on game technology." *Science and Education* 2.4 (2021): 487-491.
11. Toshpulatov, Faxriddin. "QIRQIM VA KESIM BAJARISHDA OQUVCHILARDA TIPIK XATOLARGA YOL QOYMASLIK KO 'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH." *Физико-технологического образования* 4 (2022).
12. Toshpulatov, Faxriddin. "CHIZMACHILIK FANINI TABIIY HODISALAR BILAN AMALIY BOG'LIQLIGI." *Физико-технологического образования* 1.1 (2022).
13. Baratovna T. R., Abdurakhmanova S. LEGAL AND REGULATORY BASIS OF ORGANIZING ACTIVITY CENTERS IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS //E Global Congress. – 2023. – T. 2. – C. 65-68.
14. Турапова Р. Developing dialogic speech of pre-school children on the basis of a variative approach //Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире. – 2022. – Т. 1. – №. 4.
15. Baratovna T. R. Developing Dialogic Speech of Pre-School Children on the Basis of a Variative Approach //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – T. 3. – №. 10. – C. 272-275.
16. Baratovna T. R., Asal A. " IMPROVING THE METHODOLOGY OF CHILDREN'S DIALOGIC SPEECH DEVELOPMENT BASED ON A VARIATIONAL APPROACH"(IN THE CASE OF 5-6 YEAR OLD CHILDREN) //Conferencea. – 2023. – C. 45-51.
17. Avazova D. et al. MAKTABGACHA TA'LIMDA STEAM TA'LIM TEXNALOGIYASINING AHAMIYATI. – 2023.

18. Turapova R., Zebiniso E. MAK TABGACHA TA'LIM TASHKIOTLARIDA BOLALARGA TA'LIM VA TARBIYA BERISHDA TARBIYACHI VA OTA ONALARINING O'RNI. – 2023.
19. Ra'no T., Maftuna B. Variative Approach Based on of Children Dialogic Speech Development Methodology Improvement //European Journal of Higher Education and Academic Advancement. – 2023. – T. 1. – №. 1. – C. 99-104.
20. Marjonaxon S. et al. MAK TABGACHA TA'LIM TIZIMIDA ILG'OR INNAVATSION TEXNALOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. – 2023.
21. Turapova R. B. et al. MAK TABGACHA TA'LIM TASHKIOTIDAGI BOLALARNI NUTQINI RIVOJLANTIRISH. – 2023.
22. Rayhon A. et al. MAK TABGACHA TA'LIM TASHKILOTI RAHBARINING BOSHQARUV FAOLIYATIGA INNOVATSIYALARNI JORIY ETISH. – 2023.
23. Toshpo'Latov F. U. et al. Bolalarni o 'yin texnologiyalari asosida kasb-hunarga qiziqishlarini shakllantirishda rivojlantiruvchi o 'yinlar //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 4. – C. 487-491.
24. Toshpulatov F. U., Turopova R. B. Games that develop children's interest in the profession based on game technology //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 4. – C. 487-491.
25. Тошпұлатов Ф. У., Туропова Р. Б. Игры, которые развивают интерес детей к профессии на основе игровых технологий //Наука и образование. – 2021. – Т. 2. – С. 487-491.
26. Fazilat B. et al. Methods of Involving Children who are Not Included in Pre-School Education Organizations to Private Pre-School Education Organizations //Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2023. – T. 18. – C. 104-118.
27. Mushtariy S. et al. Ways of Using Games in Forming the Activity of Preschool Children //Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2023. – T. 18. – C. 119-135.
28. qizi Maktabgacha T. R. B. yoshdagi bolalarning badiiy estetik madaniyatini o 'yinlar orqali shakllantirish EURASIAN JOURNAL OF LAW //FINANCE AND APPLIED SCIENCES <https://doi.org/10.5281/zenodo>. – T. 6341593.
29. Marjona N. et al. MAK TABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING KITO BXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA OILA BILAN ISHLASH. – 2023.